



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 79 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O'RNI	53
Mirkomilov Nozimjon Oybek o'g'li, Tillayev Xurshid Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	59
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	
CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	64
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	68
Ismoilova Intizor, To'ychiboyeva Adiba, Xabibullayeva Mohinur, Berdiqulova Sevinch	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	73
To'xtaraliyev To'lagan Nurlanbek o'g'li, Ibragimov Ulmas Raxmanovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	76
Ergasheva Komila To'ra qizi	



TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Ergasheva Komila To'ra qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

E-mail: komilaergasheva152@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilingan. Shuningdek, unda tadbirkorlikning mehnat bozoriga ta'siri, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishdagi roli hamda investitsiya muhitini shakllantirishga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Tahlil davomida tadbirkorlik subyektlarining milliy iqtisodiyotdagi faolligi, ularning yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va texnologik yangilanishni jadallashtirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada tadbirkorlik faoliyati orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish va moliyaviy sektorni rivojlantirish omillari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, innovatsiya, mehnat bozori, sarmoya, texnologik taraqqiyot, barqaror iqtisodiyot, moliyaviy sektor.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of entrepreneurship in the process of economic development. It also examines the impact of entrepreneurship on the labor market, its role in stimulating innovative activities, and its contribution to the formation of an investment environment. The study substantiates the activity of entrepreneurial entities in the national economy, emphasizing their role in creating new jobs, expanding production volumes, and accelerating technological renewal. Moreover, the article explores the factors contributing to achieving economic stability and developing the financial sector through entrepreneurial activities.

Key words: entrepreneurship, economic development, investment, innovation, labor market, capital, technological progress, sustainable economy, financial sector.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализирована роль и значение предпринимательской деятельности в процессе экономического развития. Также рассмотрено влияние предпринимательства на рынок труда, его роль в стимулировании инновационной активности и формировании инвестиционной среды. В исследовании обоснована активность предпринимательских субъектов в национальной экономике, их значение в создании новых рабочих мест, расширении объемов производства и ускорении технологического обновления. Кроме того, в статье изучены факторы достижения экономической стабильности и развития финансового сектора посредством предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, экономическое развитие, инвестиции, инновации, рынок труда, капитал, технологический прогресс, устойчивая экономика, финансовый сектор.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shayotgan muhim omillardan biri — tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. U mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutib, innovatsiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali barqaror o'sishni ta'minlamoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish yo'nalishida samarali strategiyalar ishlab chiqildi. Bu jarayon mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish imkonini bermiqda.

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yuklari kamaytirildi, kredit va subsidiya tizimi orqali kichik biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar barpo etildi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlar amaliyotga joriy etildi. Quyida ushbu jarayonlarning ilmiy tahliliga to'xtalib o'tamiz.



MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни va ahamiyati masalasi bo'yicha ko'plab iqtisodchilar, olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishda tadbirkorlikning nazariy asoslari, iqtisodiy tizimdagi roli va innovatsion jarayonlarga ta'siri keng tahlil etilgan.

Halim Rajabovich Hamroyev o'zining "Tadbirkorlik asoslari" (2010-yil) o'quv qo'llanmasida: "Tadbirkorlik juda murakkab, ko'pqirrali va, buning ustiga, fundamental ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir", — deya ta'kidlagan [1].

S. Salayev, M. Gulmanov, D. Saidov, J. Atayev va B. Tadjiyevlar "Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari" (2014-yil) nomli o'quv qo'llanmasida quyidagi fikrni ilgari surishadi: "Tadbirkor o'z mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirar ekan, o'z daromadini oshirish bilan birga jamiyat boshqa a'zolarining ham ish va daromad bilan ta'minlanishiga moddiy asos yaratadi" [2].

Dotsent N. Narzullayev esa "Biznesni rivojlantirish" (2023-yil) o'quv majmuasida kichik biznesning rolini quyidagicha izohlaydi: "Kichik tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning bozor munosabatlariga moslashish darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir" [3].

Mashhur iqtisodchi Yozef Shumpeter tadbirkorlikni barcha turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa sifatida ko'rib, uni iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida ta'riflagan [4].

Turkiyalik olimlar — Dots. Mehmet Basar, Prof. Dr. Yilmaz Urper va Dots. Burak Tugberk Tosunog'lu — "Tadbirkorlik" (2013-yil) nomli asarlarida shunday deydilar: "Bozordagi korxonalar tadbirkorlik faoliyatining mahsulidir. Agar sizda tadbirkorlik qobiliyati mavjud bo'lsa, sizda biznes yuritish imkoniyati ham mavjud. Ishsizlik, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, farovonlik va turli ijtimoiy muammolarni tadbirkorlik orqali hal etish mumkin" [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни va ahamiyatini aniqlash maqsadida rasmiy statistika ma'lumotlari, Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari hamda ilmiy nashrlardan olingan ikkilamchi ma'lumotlar asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar iqtisodiy-tahliliy, taqqoslama va dinamik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik faoliyati zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozorida sog'lom raqobatni shakllantirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish hamda texnologik taraqqiyotni jadallashtirish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Tadbirkorlik jarayoni mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Mazkur jarayonda kichik korxonalar va mikrofirmalarning o'рни alohida ahamiyatga ega. Ular zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lib, iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va bozor iqtisodiyotida raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston misolida ham kichik biznes va mikrofirmalar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Jumladan, 2021–2024-yillar davomida mamlakat hududida faoliyatini boshlagan yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining izchil o'sishi kuzatildi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat yuritib, ichki bozorda raqobatni kuchaytirmoqda, eksport salohiyatini oshirmoqda hamda iqtisodiyotning real sektorida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois kichik biznes va mikrofirmalar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va farovonligining ham muhim kafolati hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. 2021-2024-yillarda yangi tashkil etilgan va hozirda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Sohalar	2021-yilda	2022-yilda	2023-yilda	2024-yilda
Jami:	411200	462800	523600	417100
Savdo	38459	34384	33470	28005
Sanoat	19285	16191	14101	12889
Qishloq xo'jaligi	11710	12018	9388	9099
Qurilish	6330	4795	4859	3921



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2024-yillar davomida yangi tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar hamda mikrofirmalar soni barqaror o'sish va moslashuv jarayonlarini aks ettiradi. 2021-yilda ularning soni 411,2 mingta bo'lib, 2022-yilda 462,8 mingtaga yetgani kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi oshayotganini ko'rsatadi. 2023-yilda bu raqam 523,6 mingtaga yetgan bo'lib, ushbu davrda tadbirkorlik muhitining yanada jonlanganini bildiradi. 2024-yilda esa ularning soni 417,1 mingtani tashkil etgani, bozordagi raqobat, tashqi iqtisodiy sharoit va ichki tarkibiy o'zgarishlarga moslashuv jarayonini ifodalaydi. Bu dinamik holat kichik biznes tizimining moslashuvchanligini va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda faoliyatini qayta yo'naltirish qobiliyatini namoyon etadi.

Sohalar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, savdo sohasi doimo yetakchi o'rinni egallab kelmoqda: 2021-yilda 38,4 mingta korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda 28 mingta korxonalar faoliyatini davom ettirgani bu sohada sifatli konsolidatsiya va samaradorlikka yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining shakllanayotganini anglatadi. Sanoat sohasida 2021-yildagi 19,3 mingta korxonalar 2024-yilda 12,9 mingtani tashkil etgan bo'lib, bu ishlab chiqarishning yangi texnologiyalar asosida modernizatsiyalashayotganini bildiradi. Qishloq xo'jaligi sohasida esa 2022-yilda o'sish kuzatilib, keyingi yillarda barqaror rivojlanish tendensiyasi saqlanib qolgan. Qurilish sohasida 2021-yildagi 6,3 mingta korxonalar 2024-yilda 3,9 mingtani tashkil etgani tarmoqda sifatli loyihalash, investitsiya oqimlarini samarali yo'naltirish va yangi standartlarni joriy etish yo'lidagi faol harakatlarni aks ettiradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2021-yilda 56,9 foiz, 2022-yilda 54,6 foiz, 2023-yilda 54,3 foizni tashkil etgan. Bu nisbat kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi barqaror o'rnini, shuningdek, iqtisodiy o'sishdagi doimiy ishtirokini namoyish etadi. Mehnat bozorida kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilayotgan o'n minglab yangi ish o'rinlari esa mamlakatda bandlik darajasini oshirish, aholining daromadlarini barqarorlashtirish va iqtisodiy faollikni kengaytirishda muhim ijobiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari kichik biznes va mikrofirmalar faoliyatining iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, hududiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilayotganini ko'rsatadi. O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga qaramasdan, ularning moslashuvchanligi va innovatsion imkoniyatlardan foydalanish salohiyati kelgusi yillarda ham milliy iqtisodiyot o'sishining asosiy drayverlaridan biri bo'lib qolishini prognoz qilish mumkin.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar — soliqliq imtiyozlari berish, subsidiya va kredit qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda ularni samarali ishlatish — tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida tadbirkorlik faoliyati strategik ahamiyat kasb etadi. Uning ta'siri nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratish, aholining daromadlarini ko'paytirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari, xususan kichik korxonalar va mikrofirmalar, raqobat muhitini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish orqali milliy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyati O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida asosiy strategik vosita bo'lib, u nafaqat hozirgi o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda, balki kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyotning ham tayanch omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning YaIM hamda bandlikdagi ulushini yanada oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish mamlakat iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroyev, H.R. "Tadbirkorlik asoslari" (2010) – Tadbirkorlik nazariyasi va iqtisodiy tizimdagi roli.
2. Salayev, S., Gulmanov, M., Saidov, D., Atayev, J., Tadjiyev, B. "Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari" (2014) – Tadbirkorlik va jamiyat iqtisodiyotiga ta'siri.
3. Narzullayev, N. "Biznesni rivojlantirish" (2023) – Kichik biznes va tadbirkorlik ko'nikmalari.
4. Schumpeter, J. "Capitalism, Socialism and Democracy" (1942) – Tadbirkorlik va innovatsiyalar haqida klassik nazariya.
5. "Tadbirkorlik" (2013) – Startaplar va innovatsion tadbirkorlikka doir qo'llanma.
6. <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>